

## BOSHLANG'ICH TA'LIM TABIIY FANLARI DARSLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Alimardanova Mo'tabar*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Tabiiy fanlar" kafedrasи o'qituvchisi*

*Samadova Sevinchbonu*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'limga yo'nalishi 3-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi kunda ta'limga sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, har bir o'qituvchining dars jarayoniga kreativ yondashuvini ta'minlash, ilg'or-pedagogik texnologiyalardan o'rinni foydalanish haqida fikr yuritiladi. Shu bilan bir qatorda Boshlang'ich ta'limga tabiiy fanlari darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati qay darajada ekanligi, o'quvchilarining fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining samarali tomonlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** AKT, ilg'or-pedagogik texnologiyalar, tabiiy fanlar, metod, kompyuter, kreativ, dunyoqarash, mantiqiy tafakkur, dars, ta'limga.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ЕСТЕСТВЕННОСТИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается использование информационно-коммуникационных технологий в сфере образования, обеспечение творческого подхода каждого учителя к учебному процессу, целесообразное использование передовых педагогических технологий. Кроме того, будет обсуждаться важность использования информационно-коммуникационных технологий на уроках естествознания начального образования, эффективные аспекты информационно-коммуникационных технологий в ходе урока, в повышении интереса учащихся к науке.

**Ключевые слова:** ИКТ, передовые педагогические технологии, естественные науки, метод, компьютер, творчество, урок, образование, мировоззрение, логическое мышление.

### USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN NATURAL SCIENCE LESSONS IN PRIMARY EDUCATION

**Annotation.** This article discusses the current use of information and communication technologies in education, ensuring the creative approach of each

teacher to the teaching process, and the appropriate use of advanced pedagogical technologies. At the same time, the importance of using information and communication technologies in natural science lessons in primary education is discussed, and the effective aspects of information and communication technologies in increasing students' interest in science and in the teaching process are discussed.

**Keywords:** ICT, advanced pedagogical technology, natural science, method, computer, creative, lesson, education, worldview, logical thinking.

**Kirish.** Hozirgi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar o'qituvchilarning darslarga bo'lgan ijodiy yondashuvlarini ta'minlash, o'z faoliyatlari jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, multimediali dasturlar va ilg'or-pedagogik texnologiyalarni keng joriy qilish, shu bilan bir qatorda o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida kerakli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunday ekan ayni paytda tabiiy fan sohasiga oid bir qator Prezident farmon va qarorlari, turli xil qonun osti me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda.

**Adabiyotlar tahlili:** Mavzuni yoritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdag'i " Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzlucksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4805-sonli Qarori hamda Pardayeva M. va Ergasheva M. "Tabiiy fanlar" kitobidan, shuningdek, mavzuga oid maqolalardan foydalanildi.

**Tadqiqot metodlari.** Ushbu maqolada nazariy va amaliy tahlil usullaridan, ko'rgazmalilik, kuzatuv, so'rovnama kabi metodlardan keng foydalanildi. Boshlang'ich sinfda tabiiy fan darslarida o'quvchilarga mavzuni yanada tushunarli qilish uchun turli xil metod va didaktikalardan foydalanish katta ahamiyatga egadir.

"Yashirin so'z" metodi. Bu metod 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: Dars mavzusi yoki bo'lim tanlab olinadi;

2-bosqich: Mavzuga oid tanlangan atamalar kataklarga yoziladi;

3-bosqich: Har bir harf alifboda nechanchi o'rinda turganiga qarab, raqamlab chiqiladi;

4-bosqich: Asosiy bosqich hisoblanadi, ya'ni o'quvchilar bilan ishlanadi. O'quvchilar alifbo tartibidagi raqamlar orqali yashirin so'zni topadilar.

"Yashirin so'z" metodining afzalligi o'quvchilarda kreativ fikrlay oladi, tezkorlik va faollik qobiliyatlari ortadi.

**Muhokama va natijalar.** Hozirgi globallashuv jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlashlarini oshirish, dunyoqarashlarini kengaytirish, mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati katta desak mubolag'a bo'lmaydi. Biz bilamizki, dars jarayoni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik jarayon. Shunday ekan dars jarayonlarida ilg'or-pedagogik

texnologiyalardan foydalanish egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkam poydevori hisoblanadi. Shunday ekan shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda ta'lism tizimida yildan-yilga tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, ta'lism tizimini yanada samarali, sifatli va mazmunli bo'lishi uchun dars jarayonlarida ilg'or-pedagogik texnologiyalardan, multimediali dasturlardan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, kompyuter, televizor, internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron kutubxonalar va kitoblardan keng foydalanilmoqda. Shu o'rinda aytib o'tishimiz joizki, oliy ta'lism muassasalarida talabalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan tanishtirish, ularning media va axborot madaniyatini shakllantirish va uning mafkurariy dunyoqarashini yaxshilash imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'limga tabiiy fanlarni o'qitish o'quvchilar ongida tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni qay darajada ekanligi, hozirgi zamon taraqqiyotining eng yuqori pog'onasiga ko'tarilgan biologiya, kimyo, fizika kabi fanlardan foydalanib ilmiy- texnik taraqqiyotning boshlang'ich tushunchalarini shakllantirishdan iboratdir.

Tabiiy fanlar haqidagi bilimlarni egallashda, uni aniqlashda nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda, amaliy izlanishlar, tajribalar, bilimlar katta ahamiyatga egadir. Shunday ekan, tabiiy fan darslarida nazariy qism bilan bir qatorda amaliy mashg'ulot qismidagi amaliy topshiriqlarni axborot texnologiyalardan foydalangan holda tajriba o'tiazish o'quvchilarning kreativligi, mantiqiy fikrlashlari, dunyoqarashlari kengayishiga bir turki bo'ladi. Tabiiy fan darslarida amaliy topshiriqlarni o'tkazishda laboratoriya darslarida asboblar yetishmasligi yoki ishlamasligi, ayrim maktablarda esa umuman bo'lmasligi mumkin. Bunday noqulayliklarni oldini olgan holda o'tkaziladigan tajribalarni va laboratoriya mashg'ulotlarini virtual tarzda o'tkazish imkonni ham mavjud.

Bizga ma'lumki, dars jarayoni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik jarayoni. Shunday ekan, yuqorida aytib o'tilgan usullardan foydalanish bu hamkorlik jarayonida bir qator o'ziga xos afzalliklarga ega. Ular:

- o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishni ta'minlash;
- o'quvchilarning kreativ fikrlashi, mantiqiy tafakkurini oshirish;
- o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashlarini yanada oshirish.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, ta'lism tizimida axborot-kommunikatsiya va ilg'or-pedagogik texnologiyalardan foydalanish birgina ta'lism tizimining o'zida emas, unga aloqador bo'lgan turli sohalarda ham tashkil qilish, multimediali dasturlarni joriy qilish, ijtimoiy tarmoqlardan o'rinli foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirish maqsadida chekka hududlarda ham o'quvchilar uchun shu kabi imkoniyatlarni kengaytirish mamlakatimizning barcha sohalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Reupsblikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagи “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzlucksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-sonli Qarori.
2. Полат Е. С., Бухаркина М. Ю., Моисеева М. В.. Петров А. Е. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учеб. пособие. — М., Академия, 2000.
3. Максимовская М. А. Информационное управление школой // Информатика и образования — 2003. — № 11
4. Сайдахмедов Н. Янги педагогик технология моҳияти ва замонавий лойиҳаси. - Т.: Таълим маркази, 1999. - 55 б.4.
5. Yo‘ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T: Fan va texnologiya, 2021.
6. Pardayeva M. va Ergasheva M. "Tabiiy fanlar". - T: O'zbekiston nashriyoti, 2022.